



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 253-257 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI DAVRIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI BAQAROR RIVOJLANTIRISH MASALALARI



Murodxo`jayeva Feruza Majidovna

NamDU, Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası, (PhD)

Annotation. Ushbu maqolada ayollarda shijoat, boshqaruvoqa ishtiyoq, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, mas`uliyat, muammolarni tizimli va ijobiy hal etish kabi qobiliyatlari ochib berilgan. Jumladan, ayollar tadbirkorligi ishlab chiqarishning chevarchilik, qandolatchilik kabi milliy-an`anaviy yo`nalishlarida rivojlanganligi tavsiflangan hamda Namangan viloyati kichik biznes sub`ektlari tarkibida ayol tadbirkorlar soni o`zgaririshini tahlil qiladigan.

Keywords: Ayollar tadbirkorligi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi, barqaror rivojlantirish.

ISSUES OF THE ENERGETIC DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP DURING THE TRANSFORMATION OF THE ECONOMY

Murodkhojayeva Feruza Majidovna

NamSU, Department of green economy and sustainable business, (PhD)

Annotation. This article reveals women's abilities such as courage, passion for Management, hard work, perseverance, responsibility, systematic and positive problem solving. In particular, women's entrepreneurship has been described as developing in National-traditional areas of production, such as chivalry, confectionery, and the Namangan region analyzes the change in the number of female entrepreneurs in the structure of small business entities.

Keywords: women's entrepreneurship, small business, private entrepreneurship, transformation of the economy, sustainable development.

Iqtisodiyotning globallashuvi davrida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ularning salmog`i dunyodagi barcha tadbirkorlarning uchdan bir qismini tashkil qiladi[1]. Shuningdek, bu ko`rsatkich rivojlangan mamlakatlarga qaraganda rivojlanayotgan mamlakatlarda ko`proqdir[2]. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ayollarda shijoat, boshqaruvoqa ishtiyoq, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, mas`uliyat, muammolarni tizimli va ijobiy hal etish kabi qobiliyatlari yetarli. Biroq, ularning muvaffaqiyati uchun ma`naviy-moliyaviy yordamning etishmasligi, turli qadriyatlar va diskriminatsiya kabi to'siqlar mavjud. Mutaxassislarining fikriga ko`ra, aynan ayollar tadbirkorligining salohiyati jahon yalpi ichki mahsulotini ikki barobirga

oshirishi mumkin. "Boston Consulting Group" kompaniyasi ekspertlari o'tkazgan tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, agar ayol tadbirkorlar soni erkak biznesmenlar soniga teng bo'lganida edi, jahon iqtisodiyoti yalpi mahsulot hajmi 2,5 trillion dollardan 5 trillion dollarga oshgan bo'lar edi. Yana bir fakt, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan biznes, ya'ni bolalar va yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim berish sohasidagi loyihalarning 90 foizi aynan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilayotgani muhim jihat hisoblanadi[3].

O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida mustaqillikning dastlabki yilidanoq islohotlar amalga oshirilgan bo'lib, bugungi kunda ham jadal davom etmoqda. 1991 yilda "Tadbirkor ayol" nomi bilan tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi tashkil etilgan bo'lib, uning maqsadi ayollarning tadbirkorlik borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirib, davlatning taraqqiyotiga hissa qo'shish, shuningdek, gender tengligini ta'minlashga yordamlashishdan iborat. Ayniqsa, uyushma a'zolarining xorijiy va mahalliy grant-tanlovlarda ishtirokini ta'minlash borasidagi faoliyati natijasida ayol tadbirkorlar zamonaviy va qimmat texnika-texnologiyalarga ega bo'lmoqda. Mazkur ko'rsatkichni uyushmaning Namangan viloyat filiali misolida ko'radigan bo'lsak, 2023 yilda tadbirkor ayollar 50000 dollardan ziyod texnikaga ega bo'lishgan[4].


Dastlab ayollar tadbirkorligi ishlab chiqarishning chevarchilik, qandolatchilik kabi milliy-an'anaviy yo'nalishlarida rivojlangan bo'lsa, endilikda barcha tarmoqlarda kuzatilmoqda. Masalan, Buxordagi "Fayz qurilish mollari" va "Vita" MCHJlar asoschisi, direktori Fayziyeva Dilorom Nuriddinivna bo'lib, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh bo'yoq, laklar, poliprolen va beton qoplamalar, PVA elim, devor travertinlargacha ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Namangan viloyatida «Mega star flowers» rahbari Toshmatova Hakima Rahimjonovna korxonasi 2016 yilda tashkil topgan bo'lib, metal temir buyumlarni qayta ishlash, pardozlash, shakl berish, temir panjalalar gullarini ishlab hiqarish va sotish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash ombori va xususiy maktabgacha ta'lim muassasiga egaligidan ayollar tadbirkorligining diversifikatsiyalshuvini ko'ramiz[4]. Shunindek, ushbu korxonalar tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar Rossiya, Turkiya, Pokiston va qo'shni davlatlarga eksport qilinmoqda. Ayollar tadbirkorligi faoliyat yo'nalishlarini tahlil qilish jatrasyonida ularning hatto ovchilik, cho'l zonasida turizm, og'ir metallurgiya sanoati kabi turli sohalargacha kirib borganliklarini ko'rish mumkin. Demak, ular salohiyatidan ishlab chiqarichning barcha sektorlarida foydalansa bo'ladi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish boshqa sohalar kabi muammolardan holi emas. GEM[5] tadqiqotlarga ko'ra, 2022 yilda ayollarning tadbirkorlikni tugatish sabablari sifatida 24.2% i foydaning yo'qligi, 16.4%i pandemiya ta'siri, 18%i oilaviy va shaxsiy muammolarini ko'rsatishgan. Bu uchta sabab birgalikda biznesni tark qilayotgan ayollar sabablarining 2/3 qismini tashkil etgan. Har 5 ta ayoldan bittasi oilaviy sabab tufayli biznesini tugatayotganligini aytgan. Bu erkaklarga nisbatan 43 %ga ko'p[6].

Namangan viloyati kichik biznes sub'ektlari tarkibida ayol tadbirkorlar soni o'zgaririshini tahlil qiladigan bo'lsak, 2017-2023 yillar oralig'ida mazkur ko'rsatkich 2020 yilgacha 627 tadan 1276 tagacha o'sib borib, 2021 yilda 1177 taga, 2022 yilda yana 1111

taga kamayganligini ko`rishimiz mumkin. Shuningdek, ularning jami kichik tadbirkorlik sub`ektlari tarkibidagi ulushi 2017 yildagi 6.7% dan 2022 yilda 4.9 % ga pasaygan.

Namangan viloyatida ayol tadbirkorlik sub`ektlari sonining dinamikasi



Ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirish qator chora-tadbirlarni bir vaqtning o`zida majmualiy amalga oshirishni taqozo etadi. Ular uchun ta`lim olish jarayoni, texnologiyalar va moliyalashtirish masalalarini osonlashtiruvchi qulay biznes muhitini yaratish zarur. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qollanilayotgan tajribaning ayrimlarini ayollar tadbirkorligi uchun ham yo`naltirish maqsadga muvofiq. Masalan, sanoat zonalarini tashkil etish bo`yicha Namangan viloyati misolida ko`radigan bo`lsak, 72 ta kichik sanoat va 18 ta yoshlar sanoat zonalarini tashkil etilib, ularga qiymati 10.9 trln so`mlik 1245 ta loyihalar joylashtirilgan. Ularning ishga tushishi 64614 ta yangi ish o`rinlarini yaratadi. Ayni vaqtda 12200 dan ortiq ishchilarni band qilgan bo`lib, 2024 yil birinchi choragida 9.7 mlnlik mahsulotlar eksportga yo`naltirilgan[7].

Fikrimizcha, barcha hududlarda ayollar sanoat zonalarini ham tashkil etish ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirish uchun, shubhasiz, zamin yaratadi va bir qator quyidagi ijobiy samaralarga olib keladi.

Birinchi, ayollar tadbirkorligi sub`ektlarini birlashtirish orqali, ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytiradi.

Ikkinchi, ayollar tadbirkorligi natijasida yaratiladigan tovar va xizmatlarning tannarxi pasayadi, ayollar daromadlarining oshishiga omil bo`ladi.

Uchinchi, o`zbekona mentalitetimiz, e`tiqod, dunyoqarashlar sababli ishlab chiqarishda ishtirok eta olmayotgan ayollar qatlamini mehnatga jalb qilish va ular bandligini ta`minlash imkonini beradi.

To`rtinchidan, uy xo`jaliklarida qandolatchilik, chevarchilik, hunarmandchilikning ko`plab yo`nalishlarida norasmiy faoliyat yuritib, qiymat yaratayotgan ayollarni mos turdagi ayol tadbirkorlar sohasiga birlashtirish imkoniyati vujudga keladi va shu kabi ko`plab sohalarning legallasuvi "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish masalasi[8]

yechiminig bir yoli bo'la oladi. Ular tomonidan yaratiladigan mahsulotlar sifati oshadi. Tajriba, g'oyalar almashinuvi ro'y beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. GEM Report. Women's Entrepreneurship 2020/21: Thriving Through Crisis.
2. Minniti M., Allen E. and Langowitz N. (2006) The 2005 Global Entrepreneurship Monitor Special Topic Report: Women in Entrepreneurship. Center for Women Leadership, Babson College. Babson Park, MA.
3. <https://www.bcg.com/publications/2019/boost-global-economy-5-trillion-dollar-support-women-entrepreneurs>.
4. "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasi Namangan viloyati hududiy bo'limi ma'lumotlari asosida.
5. Global Entrepreneurship Monitor-butun dunyo bo'ylab tadbirkorlik faoliyatini tadqiq qiluvchi xalqaro loyiha.
6. Global Entrepreneurship Monitor 2022/23 Women's Entrepreneurship Report: challenging Bias and Stereotypes. UK, London, 2023.
7. Namangan viloyati Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi ma'lumotlari
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
9. Кенжаев И. Э. Созданные условия для иностранных инвесторов в узбекистане //Приоритетные векторы развития промышленности и сельского хозяйства. – 2019. – С. 157-159.
10. Кенжаев, И. (2019). Теоретические аспекты привлечения иностранных инвестиций в экономику региона. Экономика и инновационные технологии, (3), 65–75. извлечено от
https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10802
11. Ikrom Ergashboevich Kenjaev, & Bahodirjon Tursunbaevich Bayhonov. (2020). Development Of Organizational Mechanisms For Attracting Investment In Small Business. The American Journal of Management and Economics Innovations, 2(09), 6–16. <https://doi.org/10.37547/tajmei/Volume02Issue09-02>
12. Кенжаев И. Кичик бизнестга хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг норматив-ҳуқуқий асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/С. – С. 329-344.
13. Икром Кенжаев Нормативно-правовая база привлечения иностранных инвестиций в малый бизнес // ОИИ. 2021. №4/С. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/normativno-pravovaya-baza-privlecheniya-inostrannyh-investitsiy-v-malyu-biznes>.
14. Kenjaev I. E. Theoretical aspects of attracting foreign investment in the economy of the region //Economics and Innovative Technologies. – 2019. – Т. 2019. – №. 3. – С. 8.
15. Кенжаев, И. Э., Балтабаев, М. Т., & Абдурахманов, Ш. Ш. (2022). Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 3(5), 159-164. Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/508>
16. Кенжаев, И. Э., & Бахрамжанова, Ф. Т. к. (2022). Особенности Развития Рынка Капитала В Узбекистане. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL &

- APPLIED SCIENCES, 3(5), 165-168. Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/509>
17. Kenjayev I. E. Theoretical Foundations of Improving the Competitiveness of the National Economy //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 165-169.
 18. Ikrom Ergashboevich Kenjayev. (2023). Mechanisms of System Management of Processes of Territorial Development of Regions. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(9), 83-91. Retrieved from <https://cajitmf.centralasianstudies.org/index.php/CAJITMF/article/view/599>
 19. Кенжаев И. Э. ИНФРАСТРУКТУРЫ ДЛЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В МАЛЫЙ БИЗНЕС //Приоритетные векторы развития промышленности и сельского хозяйства. – 2021. – С. 152-155.
 20. Ergashboyevich K. I. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANI KENGAYTIRISHDA TASHQI SAVDO ALOQALARINING O'RNI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 277-282.
 21. Ikrom Ergashboevich Kenjaev, Ibodilloxon Ismatillayevich Soliyev KICHIK BIZNESDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISHNING MINTAQAVIY TAHLILI // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznesda-investitsiyalardan-foydalanishning-mintaqaviy-tahlili> (дата обращения: 12.10.2023).

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

